

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING SO‘Z BOYLIGINI OSHIRISHNING AHAMIYATI

Sobirova Dilraboxon Shokirjon qizi

QDPI-70110401-Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi va metodikasi

(boshlang‘ich ta’lim) 1-bosqich magistranti

dilrabonabiyeva43@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining so‘z boyligini oshirishning ahamiyati, bu jarayonda o‘qituvchining o‘rnii, foydalaniladigan metod va vositalar, hamda natijaviy yondashuvlar haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, bolalarda so‘z boyligini rivojlantirish uchun amaliy tavsiyalar, o‘yinlar, matnlar bilan ishslash, lug‘at daftarlari yuritish kabi samarali yo‘llar yoritiladi.

Annotation: In this article, the words of elementry school students the importance of increasing wealth, the role of teacher in this process, the methods and tools used, and the resulting approaches are discussed. Also effective ways to develop children’s vocabulary, such as practical recommendations, games, working with text, keeping dictationary notebooks are highlighted.

Kalit so‘zlar: Interfaol metodlar, so‘z boyligi, ma’nodosh so‘zlar, o‘yinlar, noan’anaviy ta’lim

Key words: Interactive methods, vocabulary, synonyms, games, non-traditional education

Til — fikr almashish, o‘zaro munosabat o‘rnatishning eng muhim vositasidir. Bola muktabga qadam qo‘ygan ilk kundan boshlab, atrof-muhit bilan samarali muloqot qilish, o‘z fikrini to‘g‘ri ifodalash, o‘rganganlarini izchil bayon eta olish uchun yetarli so‘z boyligiga ega bo‘lishi lozim. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf davri bu borada hal



qiluvchi bosqich hisoblanadi. Chunki aynan shu davrda o‘quvchilarning nutqi shakllanadi, o‘z fikrini og‘zaki va yozma ravishda ifodalash ko‘nikmalari rivojlanadi. Shuning uchun boshlang‘ich sinfda o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish — nafaqat til o‘qituvchisi, balki barcha fan o‘qituvchilarining diqqat markazida bo‘lishi lozim.

So‘z boyligi bolaning tafakkuri, dunyoqarashi va nutq madaniyati bilan chambarchas bog‘liq. So‘z zaxirasi boy o‘quvchi darslarni oson o‘zlashtiradi, o‘z fikrini aniq ifodalashi, adabiy asarlarni tushunishi, mustaqil fikrlashi va yozma ishlarni yuqori darajada bajarishi mumkin. Bundan tashqari, boy lug‘at zaxirasi bolani ijtimoiy jihatdan ham faolroq qiladi: savollarga dadil javob berish, nutqiy holatlarga to‘g‘ri reaksiya bildirish, jamoaviy ishda faol ishtirok etishga yordam beradi. So‘z boyligini oshirishda matnlar bilan ishlash muhim o‘rin tutadi. Har bir darsda matn asosida yangi so‘zlar ajratib olinishi, ularning ma’nosи tushuntirilishi va og‘zaki-nazariy mustahkamlash ishlari olib borilishi lozim. O‘quvchilarga yangi o‘rgangan so‘zlarini og‘zaki va yozma nutqda qo‘llash topshiriqlari berilishi kerak. Har bir o‘quvchi yangi o‘rgangan so‘zlarini maxsus daftarga yozib borishi, ularning ma’nosи, sinonimi, antonimi, qo‘llanilish doirasi haqida yozib borishi foydali bo‘ladi.

Interfaol metodlar orqali so‘zlarni o‘zlashtirish ancha samarali bo‘ladi. “Aqliy hujum”, “Zanjirli so‘zlar”, “So‘z o‘yini”, “Top-o‘l” kabi o‘yinlar orqali so‘zlarni mustahkamlash mumkin. Badiiy asarlarni o‘qish, ertak va hikoyalarni tinglash orqali bolalarning tasavvuri va so‘z boyligi kengayadi. O‘quvchilarga hikoya tuzish, she‘r yozish yoki erkin matn yaratish topshiriqlari berish ularning yangi so‘zlarni faol o‘zlashtirishiga turki bo‘ladi. O‘qitish jarayonlarida noan’anaviy ta‘lim usullaridan: «Konferensiya darsi», seminar darsi, «Aralash darslar», «O‘yinchoqlar yordamida dars o‘tish», «Kasbga bog‘lab dars o‘tish», «Badiiy adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish», «Evrika(o‘ylab top)»; ta‘limning qiziqarli faol usullaridan: «Kichik va katta guruhlarda ishslash», «Rolli o‘yinlar», «Sahna ko‘rinishi», «Krossvordlar yechish», «Zakovat savollari», «test sinov topshiriqlari», «Turli tarqatma materiallardan foydalanib dars o‘tish», «Sinkveyn o‘yinlari»; shuningdek, ta‘limning innovatsion



(yangi) usullari: « Modifikatsiyalashgan ta‘lim», «Improvizasiya», «Aqliy hujum», «Debat», «tanqidiy tafakkurni rivojlantiruvchi usul», «Klaster usuli», «Muammoli vaziyat», «Muayyan holat, vaziyatni o‘rganish, tahlil qilish», «Har kim har kimga o‘rgatadi», «Nuqtai nazaring bo‘lsin», «Multimedia vositalaridan foydalanish» va boshqalarni qo‘llash muhimdir.

Amaliy jihatdan esa, har hafta “hafta so‘zi” tanlab, shu so‘z bilan bog‘liq gaplar tuzdirish, darsdan tashqari o‘yinlar va viktorinalarda yangi so‘zlardan foydalanish, o‘quvchining nutqini rag‘batlantirib borish, bolani savol berishga va javob berishga undash, multfilm va video darsliklardan foydalanish orqali bu jarayonni qiziqarli va samarali tashkil etish mumkin. So‘z boyligini oshirish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kelajakdagи bilim olish darajasi, muloqot madaniyati va mustaqil fikrlesh qobiliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bu borada o‘qituvchining o‘z ishiga ijodiy yondashuvi, o‘quvchilarning yoshiga mos metodlarni tanlashi va tizimli ish olib borishi muhim ahamiyatga ega. So‘z boyligini oshirish orqali biz bilimli, faol, nutqiy jihatdan yetuk shaxsni tarbiyalaymiz

Foydalnilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O`Q.Tolipov va M.Usmonboyeva .Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiyl asoslari – Toshkent.Fan. 2006.-260bet
2. A.Musurmanova va boshqalar. Umumiy pedagogika – Toshkent. Innovatsiya – Ziyo.2020.-194-bet
3. Karima Qosimova, Safo Matchonov, Xolida Gulomova, Sharofat Yoldosheva,